2
Bob

BIR MAQSAD ATROFIDA BIRLASHGAN JAMOA

2.1. Ustoz-shogird tizimi: yosh pedagogni kasbga moslashtirish

2.2. Sinf rahbari

2.3. Maktabning ichki metodik xizmati

2.4. Maktab jamoasi



2.1. USTOZ-SHOGIRD TIZIMI: YOSH PEDAGOGNI KASBGA MOSLASHTIRISH

Iqtibos

Tarbiyachilar bir-biriga bog‘liq va yagona rejaga ega bo‘lgan holda harakat qilmasa, biror natijaga erishish mumkin emas.

A.S. Makarenko

Pedagogik kadrlar salohiyatini rivojlantirish davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Yosh va tajribasiz o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishi, ilk yillardagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishi va kasbda mustahkamlanishi uchun ustoz-shogird (mentorlik) tizimini ta’lim tashkilotlarida samarali joriy etish zarur.

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotida ilk bor kasbiy faoliyatini boshlayotgan shaxsga bir o‘quv yili davriga murabbiylikni amalga oshirish uchun tajribali pedagog biriktiriladi.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni 01.02.2024-yildagi O‘RQ-901-son, 4-modda.



USTOZ-SHOGIRD TIZIMINING MAQSADI

Ustoz-shogird tizimining maqsadi — yosh pedagogning kasbiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlash, amaliy qiyinchiliklarini bartaraf etishga ko‘maklashish, jamoaga integratsiyasini ta’minlash va mustaqil faoliyatga tayyorlash.

Fan metodbirlashmasi rahbari tegishli yo‘nalish bo‘yicha ustoz-shogird faoliyatining tizimli tashkil etilishiga ko‘maklashadi.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 5-yanvardagi “Umumta’lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 8-son buyrug‘iga 1-ILOVA, 2-bob.

USTOZ-SHOGIRD FAOLIYATINING SHAKLLARI

“Pedagog – pedagog” shakli: tajribali o‘qituvchi yosh mutaxassisni kasbiy jihatdan yo‘lga qo‘yadi, uning darslarini kuzatadi, tahlil qiladi va amaliy maslahatlar beradi.

“Rahbar – pedagog” shakli: maktab rahbari yoki uning o‘rinbosari to‘g‘ridan-to‘g‘ri pedagogning kasbiy rivojlanishini nazorat qiladi va yo‘naltiradi.

“Teskari mentorlik” – yosh pedagog tajribali hamkasbiga raqamli texnologiyalar, AKT vositalari bo‘yicha yordam beradi. Bu ikki tomonlama foydali jarayon.

Virtual (masofaviy) mentorlik– onlayn platformalar, video-konferensiya va elektron pochta orqali amalga oshiriladigan mentorlik

Muhim

Mentorlik — bu ikki tomonlama va o‘zaro boyituvchi jarayon. Ustoz shogirdga yordam berar ekan, o‘zi ham yangi tajriba orttiradi va o‘z ustida ishlaydi. Bu esa pedagogik kasbiy so‘nishning ham oldini olishga xizmat qiladi.

Direktor uchun muhim

Direktor maktabda ustoz-shogird tizimini joriy etish bo‘yicha buyruq chiqarishi, har bir yosh mutaxassisga tajribali ustozni biriktirishi va mentorlik faoliyati natijalarini har chorakda tahlil qilishi lozim. Mentorlarning mehnatini alohida rag‘batlantirish muhim.

KIM USTOZ BO‘LISHI MUMKIN?

Ustoz sifatida oliy yoki birinchi malaka toifasiga ega, yetarli pedagogik tajribaga, metodik mahoratga, samarali muloqot va hamkorlik ko‘nikmalariga ega, kasbiy obro‘si yuqori hamda o‘z tajribasini baham ko‘rishga tayyor pedagog tavsiya etiladi.

Ustoz tahlil, kuzatuv va refleksiya ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, shogirdga tayyor yechimlarni majburan singdirmasdan, uning mustaqil kasbiy qaror qabul qilishiga ko‘maklashishi lozim. U mentorlik natijalari uchun mas’uliyat bilan yondashadi va o‘zi ham uzluksiz kasbiy rivojlanishga intiladi.

KIM SHOGIRD BO‘LISHI MUMKIN?

- Pedagogik faoliyatni birinchi marta boshlagan yosh mutaxassislar.
- Uzoq tanaffusdan keyin ishga qaytgan pedagoglar.
- Kasbiy qiyinchiliklarni his qilayotgan va ustozga muhtoj pedagoglar.
- Zamonaviy IT dasturlari, raqamli ko‘nikmalar, AKT kompetentsiyalari va boshqalarni o‘zlashtirmoqchi bo‘lgan o‘qituvchilar.
- Kasbiy yoki hissiy charchoqni boshdan kechirayotgan o‘qituvchilar.
- Keyingi ishga joylashish majburiyati bilan shartnoma imzolagan va/yoki ta’lim tashkilotida amaliyot o‘tayotgan stajyorlar/talabalar.

2.2. SINF RAHBARI FAOLIYATI

Iqtibos

Bolaning qalbiga yo‘l topish - eng ulug‘ san’atdir. Buni faqat chin ko‘ngildan sevgan tarbiyachi uddalay oladi

Abdulla Avloniy

Sinf rahbarligi — o‘quvchilarni tarbiyalash, ijtimoiylashtirish va sinf jamoasini shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat yo‘nalishidir. Sinf rahbari o‘quvchilarning individual rivojlanishini kuzatadi, ta’lim-tarbiya jarayonidagi hamkorlikni muvofiqlashtiradi va xavfsiz sinf muhitini yaratishga ko‘maklashadi.

Sinf rahbari mehribon va fidoyi tarbiyachi bo‘lib, u o‘quvchilar qalbida milliy qadriyatlarimizga hurmat, kattalarga ehtirom, kichiklarga mehr-oqibat, ona Vatanga sadoqat va milliy g‘urur tuyg‘ularini shakllantirishga munosib hissa qo‘shadi.

Pedagogik faoliyati davomida o‘ziga biriktirilgan sinfdagi (guruhdagi, kursdagi) ta’lim oluvchilarning bilimini mustaqil baholash;

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni 01.02.2024-yildagi O‘RQ-901-son, 6-modda

SINF RAHBARLARIGA QO‘YILADIGAN MEZONLAR


- kamida 3 yillik pedagogik ish stajiga ega bo‘lgan;
- maktabda asosiy ishchi sifatida faoliyat olib borayotgan (umumta’lim muassasalarida mehnatini soatbay (shu jumladan o‘rindoshlik) asosda faoliyat olib boruvchi o‘qituvchilarning sinfga rahbarlik qilishiga yo‘l qo‘yilmaydi);
- boshqaruvchanlik qobiliyatiga ega bo‘lgan;
- o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida mas’uliyat bilan yondasha oladigan;
- boshlang‘ich sinflarda sinf rahbarligi boshlang‘ich sinfga biriktirilgan o‘qituvchilarga yuklatiladi.

SINF RAHBARINING ASOSIY VAZIFALARI

Ta’lim muassasasining tarbiyaviy tizimidagi tayanch pedagoglardan biri sifatida o‘ziga biriktirilgan sinfdagi o‘quvchilarning (keyingi o‘rinlarda sinf o‘quvchilari deb yuritiladi) belgilangan ta’lim va tarbiya olishlarini tashkil etish;

odob-axloq va ichki tartib qoidalariga muvofiq muomala va kiyinish madaniyatiga amal qilish, jamoada namunali bo‘lish;

o‘quvchilarning o‘sib-ulg‘ayishlarini pedagogik kuzatuvlar asosida nazorat qilish, yordamga muhtoj o‘quvchilarga yakka holda yondashish asosida ular qalbida milliy g‘urur, vatanparvarlik, mehr-oqibat, mas’uliyat, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarni uyg‘otish;



O‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo‘nalishida: o‘quvchilarni Vatani va xalqiga sadoqat, fidoyilik, Davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalash; o‘quvchilar ongiga buyuk ajdodlarimiz merosi va xalqimizning bugungi bunyodkorlik ishlariga yuksak ehtirom tuyg‘ularini singdirish, yurtimizdagi bunyodkorlik ishlari, inshootlar va ma’rifat maskanlari bilan ularni tanishtirib borish;

Ota-onalar va mahalla bilan hamkorlik yo‘nalishida:

- barkamol avlodni tarbiyalashda “Oila - mahalla ta’lim muassasasi” hamkorligidagi Jamoat kengashi faoliyatini keng tatbiq etish, aniq belgilangan reja asosida sinf ota-onalar majlislarini o‘tkazib borish.

SINF RAHBARI YURITADIGAN ASOSIY HUJJATLAR

- Sinf rahbari daftari; (sinf o‘quvchilari haqida umumiy ma’lumot, sinfning ijtimoiy xaritasi, kam ta’minlangan oilalar, to‘liq bo‘lmagan oila, sinf o‘quvchilarining to‘garakka qatnashishi, ota-onalar bilan ishlash, ota-onalar yig‘ilishlari bayonnomasi,
- Maktabning ichki ro‘yxatiga kiritilgan tartibbuzar, tarbiyasi og‘ir va surunkali dars qoldiruvchi o‘quvchilar bilan amalga oshirilgan ishlar yig‘ma jildi.

Muhim

sinf o‘quvchilarining davomatini nazorat qilish, sababsiz darsga kelmagan o‘quvchilarning ota-onalari bilan (telefon orqali) bog‘lanib, darsga kelmaganlik sabablarini o‘rganish, natijalari bo‘yicha maktab rahbariyatiga axborot (zarur hollarda yozma) kiritish.

Direktor uchun muhim


Bir o‘qituvchiga faqatgina bitta sinf rahbarligi topshiriladi. Direktor o‘rinbosarlari, psixologlar sinf rahbari bo‘lishi mumkin emas. Sinf rahbarlari faoliyatini ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 27-iyundagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi direktorining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari va sinf rahbarlarining lavozim yo‘riqnomasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 190-son buyrug‘iga 2-ILOVA, 2-,3-,4-boblar.

SINF RAHBARLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- sinf o‘quvchilarining dars mashg‘ulotlari va imtihonlarida ishtirok etish;
- bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun qo‘shimcha darslar tashkil etish bo‘yicha ta’lim muassasasi rahbariyatiga taklif kiritish;
- o‘quvchilar tarbiyasiga oid ilg‘or ish tajribalarini amalga oshirish bo‘yicha ta’lim muassasasi rahbariyatiga tashabbus bilan chiqish;
- sinf faollari ishini nazorat qilish, ular bilan birgalikda yig‘ilish kun tartibini belgilash va sinf yig‘ilishlarini uyushtirish;
- o‘qishda yutuqlarga erishgan, umumiy foydali mehnatda, maktab hayoti va jamoatchilik ishlarida faol o‘quvchilarni taqdirlashga tavsiya etish;
- sinf soatlarini rejalashtirishda o‘quvchilar yosh xususiyatlaridan kelib chiqib tanlangan mavzularga o‘zgartirishlar kiritish;
- sinf soatlari mavzularining ta’sirchanligini oshirish uchun maktab psixologi bilan yaqindan hamkorlik qilish, zarur holatlarda dars jarayoniga maktab psixologini taklif qilish;
- o‘quvchilarning ota-onalari bilan ta’lim-tarbiya masalalari yuzasidan suhbatlashish, hamkorlik qilish, pedagogik maslahatlar berish;
- o‘quvchilar xulqini baholash;
- hamkorlikda olib boriladigan tadbirlarda muntazam qatnashmaydigan, farzandi tarbiyasiga e’tiborsiz ota-onalar bo‘yicha maktab kuzatuv kengashiga, “Oila-mahallata’lim muassasasi hamkorligi” Jamoat kengashiga murojaat qilish.



2.3. MAKTABNING ICHKI METODIK XIZMATI

Metodik xizmat — pedagoglarning kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash, ularga manzilli yordam koʻrsatish va kasbiy mahoratini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-metodik faoliyat tizimidir. Maktab darajasida u pedagogik kengash, metodik kengash va fan metodbirlashmalari orqali amalga oshiriladi.

MAKTAB METODIK XIZMATINING ASOSIY YOʻNALISHLARI

- Ta’lim va tarbiya jarayonini metodik jihatdan ta’minlash;
- Kasbiy rivojlanishi ehtiyoji aniqlanga pedagoglarga manzilli metodik yordam koʻrsatish;
- Oʻqituvchilarning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- Yosh pedagoglarning kasbiy shakllanishini qoʻllab-quvvatlash;
- Yangi pedagogik texnologiyalarni tahlil qilish, sinab koʻrish va joriy etish;
- Oʻquv mashgʻulotlari sifatini oshirish uchun ilgʻor tajribalarni ommalashtirish.
- Umumta’lim muassasalari oʻz faoliyatida Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, ushbu Nizomga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek oʻz ustavlariga amal qiladi.
- Oʻquv-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmunida oʻquv haftasining davomiyligi, tibbiy-maslahat komissiyasining xulosasi va umumta’lim muassasasining pedagogik kengashi qarori bilan oʻquvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi va bosqichli nazoratdan ozod etilishi mumkinligi keltirilgan.
- **Pedagogik kengash – umumta’lim muassasasida oʻquv-tarbiya jarayonining tashkil etilishida oliy boshqaruv organi hisoblanadi.**

Normativ asos

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy oʻrta ta’lim toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 140-sonli qarori

PEDAGOGIK KENGASHNING MAQSADI

Ta’lim tashkilotida davlatning ta’lim siyosatini amalga oshirish, ta’lim tashkilotining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish, uni takomillashtirishda pedagogik jamoaning faoliyat yoʻnalishini belgilash, ta’limdagi yutuqlarni va ilgʻor pedagogik tajribalarni amaliyotga joriy etishda pedagogik jamoani birlashtirish, demokratiya, oshkoralik, oʻzini oʻzi boshqarish tamoyillari asosida ta’lim tashkiloti boshqaruvini amalga oshirishdan iborat.

Pedagogik kengash — umumiy oʻrta ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy masalalarini kollegial muhokama qiladigan va oʻz vakolati doirasida qaror qabul qiladigan boshqaruv organidir.

PEDAGOGIK KENGASHNING VAZIFALARI

Maktab pedagogik jamoasi faoliyatini o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini ta’minlash hamda ta’lim sifatini oshirishga yo‘naltirish.

Maktab ma’muriyati, metodik kengash hamda fan metodbirlashmalari (uslubiy birlashmalar) hisobotlarini eshitish va ularga baho berish.

O‘quvchilarni sinfdan sinfga o‘tkazish, yakuniy attestatsiyalarga (imtihonlarga) kiritish yoki maktabni bitirishi bo‘yicha yakuniy qarorlarni qabul qilish.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 3-apreldagi 32-mh-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2799-2, 2026-yil 11-aprel) bilan kiritilgan o‘zgartirishlarni hisobga olgan holda Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotining pedagogik kengashi to‘g‘risidagi namunaviy nizom.

Direktor uchun muhim

Pedagogik kengash bayonnomalari kun tartibi, muhokama mazmuni, qabul qilingan qaror, ijrochi va muddatlar aniq ko‘rsatilgan holda rasmiylashtiriladi. Direktor qarorlar ijrosini muntazam nazorat qiladi.

Amaliy tavsiya

Direktor kengash qarorlarining ijrosini nazorat qilishi va har bir qarorga ijrochi, muddat belgilashi tavsiya etiladi..

Metodik kengash umumta’lim muassasasining ta’lim, metodik va innovatsion faoliyatini ta’minlash yuzasidan metodik xizmatni amalga oshiradigan jamoaviy organ hisoblanadi. Metodik kengashning faoliyati jamoatchilik asosida tashkil etiladi.

METODIK KENGASHNING MAQSADI

Umumta’lim muassasasi o‘qituvchilarining malakasini oshirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, kasbiy mahoratini o‘stirish hamda metodik ishlarga tez moslashuvchanligini ta’minlashdan iborat.

METODIK KENGASHNING ASOSIY VAZIFALARI

Umumta’lim muassasasida ta’lim-tarbiya sifatini oshirish uchun zarur bo‘lgan metodik faoliyatni muvofiqlashtirish, pedagog xodimlarning faoliyati samaradorligini oshirish;

umumta’lim muassasasining o‘quv dasturi, o‘quv rejasi va uning rivojlantirish dasturlarini birlamchi ekspertizadan o‘tkazish hamda tasdiqlash uchun umumta’lim muassasasining pedagogik kengashiga tavsiya etish;

umumta’lim muassasasi o‘qituvchilariga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, ta’lim metodlari, shakli va vositalarini izlab topishga ko‘maklashish, dars jarayonida qo‘llashga

sharoit yaratish, ilg‘or ish tajribalarini ommalashtirish va ta’lim jarayonida yutuqlarga erishayotgan pedagogik xodimlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tavsiyalar berish;

o‘quvchilar bilimi, ko‘nikma va malakalarining davlat ta’lim standartiga mosligini o‘rganish, tahlil qilish, monitoring qilish va natijalariga ko‘ra aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

o‘quv yili yakunida o‘quvchilarni keyingi sinfga ko‘chirish yoki sinfda qoldirish masalasini ko‘rib chiqish;

pedagog xodimning innovatsion faoliyatini tashkil qilish, ularning ijodiy izlanishlari uchun seminarlar, trening mashg‘ulotlari, pedagogik texnologiyalar bo‘yicha taqdimotlar hamda ochiq darslar tashkil etish;

umumta’lim muassasasi pedagog xodimlarining malaka oshirishlarini tashkil etish.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirining buyrug‘i, 2016-yil 31-martdagi 3-mh-son, 2016-yil 3-mayda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 2781

Muhim

Metodik kengash yig‘ilishlari tasdiqlangan ish rejasi va amaldagi nizom talablariga muvofiq o‘tkaziladi. Yig‘ilishlar faqat hisobot tinglash bilan cheklanmasdan, dars sifati va metodik yordam natijalarini tahlil qilishga yo‘naltiriladi

Direktor uchun muhim

Metodik kengash tarkibi umumta’lim muassasasi direktorining buyrug‘i bilan shakllantiriladi. Metodik kengash umumta’lim muassasasining pedagogik kengashiga bo‘ysunadi va o‘z faoliyatini pedagogik kengash qarorlarini bajarishga yo‘naltiradi

O‘quv-tarbiya jarayonining metodik ta’minoti va tashkiliy-pedagogik jarayonga oid yillik ish rejada har bir pedagog xodimning lavozim majburiyatlari hamda u bilan tuzilgan mehnat shartnomasida belgilangan vazifalar bilan bir qatorda o‘quvchilarni barkamol va ma’naviy yetuk inson etib tarbiyalash maqsadida ularning qobiliyat va iste’dodlarini rivojlantirishni nazarda tutgan holda, fanlarni o‘zlashtirishda qiynalayotgan va iqtidorli o‘quvchilar bilan alohida mashg‘ulotlar olib borishi hamda pedagog xodimning o‘z ustida mustaqil ishlashi nazarda tutiladi.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining qarori, 2018-yil 27-iyul, 19-q/q-son. 2018-yil 20-avgustda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3058.

TEZ-TEZ BERILADIGAN SAVOLLAR VA JAVOBLAR!

O‘QITUVCHI METODIK ISHLARDA ISHTIROK ETISHDAN BOSH TORTISHI MUMKINMI?

Yo‘q. Kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirishi, ta’lim berishning ilg‘or va innovatsion shakllari hamda uslublaridan foydalanishi shart.

O‘z ehtiyojiga ko‘ra fan o‘qituvchilari tomonidan o‘tiladigan darslarni kuzatish, dars tahlili natijasida o‘zaro tajriba almashish;

pedagogik kengash, metodbirlashma yig‘ilishlari, o‘quv-seminar, ochiq darslar va metodik materiallar ishlab chiqishda ishtirok etish va metodik seminarlar kasbiy mahoratni oshirishning asosiy maydonidir.

Ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari (hamkasblari, ma’muriyat) bilan hamkorlik qilishi, bolalarning qobiliyati va iste’dodini rivojlantirishi shart.

Metodbirlashma va pedagogik kengash jamoaviy hamkorlik organlaridir. Hamkorlikdan bosh tortish pedagogik etika va qonun majburiyatiga ziddir.

O‘QITUVCHI OCHIQ DARS O‘TKAZISHI SHARTMI?

Ha. Pedagog xodimning innovatsion faoliyatini tashkil qilish, ularning ijodiy izlanishlari uchun seminarlar, trening mashg‘ulotlari, pedagogik texnologiyalar bo‘yicha taqdimotlar hamda ochiq darslar tashkil etish zarur.

O‘QITUVCHI DARSDAN TASHQARI TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHI SHARTMI?

Ha. O‘quvchilarning qobiliyat va iste’dodlarini rivojlantirishni nazarda tutgan holda, fanlarni o‘zlashtirishda qiynalayotgan va iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash maqsadida o‘z fani bo‘yicha to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etishga majbur.

2.4. MAKTAB JAMOASI

Iqtibos

Bolaning qalbiga yo‘l topish - eng ulug‘ san’atdir. Buni faqat chin ko‘ngildan sevgan tarbiyachi uddalay oladi

Abdulla Avloniy

Maktab jamoasi — yagona kasbiy qadriyatlar, umumiy maqsadlar va o‘zaro mas’uliyat asosida birlashgan pedagogik xodimlar hamda boshqaruv kadrlari jamoasidir. Ta’lim muassasasining barqaror natijasi jamoaning hamjihatligi, ochiq muloqoti va umumiy maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatiga bevosita bog‘liq.

SAMARALI JAMOANI BOSHQARISH SIKLI

1. **TAHLIL** - ichki va tashqi omillarni chuqur tahlil qilish: o‘quvchilar natijalari, pedagoglar salohiyati, moddiy-texnik baza, jamoa muhiti;
2. **MAQSAD BELGILASH** - tahlil asosida strategik va operativ maqsadlarni aniq belgilash;

3. **REJALASHTIRISH** - maqsadlarga erishish uchun aniq ish rejasi va yo‘l xaritasini (maktabning umumiy yillik ish rejasi, metodik kengash rejalari, fan metodbirlashmalari rejalari, sinf rahbarlari uslubiy birlashmasi rejalari) tuzish

4. **AMALGA OSHIRISH** - rejani hayotga tatbiq etish, har bir jamoa a’zosining mas’uliyatini belgilash;

5. **NAZORAT** - joriy va yakuniy nazorat o‘tkazish, ish rejalarning bajarilishini tekshirish va metodik yordam berish;

6. **TAKOMILLASHTIRISH** - natijalar asosida maqsadni qayta ko‘rib chiqish va yangi siklni boshlash.

MUVAFFAQIYATLI MAKTAB JAMOASINING ASOSIY BELGILARI

Maktabda rahbariyat, pedagoglar va boshqa xodimlar o‘rtasida hamjihatlik hamda o‘zaro samimiy muloqot yo‘lga qo‘yilishi jamoaviy faoliyatni jipslashtirish va ta’lim-tarbiya jarayonini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Maktab jamoasi ishtirokida ta’lim sifati, tarbiyaviy muhit hamda erishilgan natijalar muntazam tahlil qilinib, belgilangan rejalarga erishish nazorat qilib boriladi. Tahlil natijalariga asosan, har bir jamoa a’zosi o‘z faoliyatini yanada samarali tashkil etishga harakat qiladi.

Shuningdek, maktabda rivojlanish strategiyasi, amalga oshirilayotgan loyihalar, reja va dasturlar hamda me’yoriy hujjatlar haqida jamoa a’zolarini muntazam xabardor qilib borish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Bu esa jamoada o‘zaro ishonch, birdamlik va mas’uliyat muhitining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.



Ta’lim muassasasining muvaffaqiyati pedagoglarining kasbiy mahorati va salohiyati bilan o‘lchanadi. Maktabda oliy toifali va tajribali fan o‘qituvchilari faoliyat yuritsa, bunday ta’lim muassasaning o‘quvchilarga sifatli ta’lim berishi, fanlarni chuqur o‘rgatishi hamda ularni kelajak kasbiga yo‘naltirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Maktabda ijodkor, tashabbuskor va zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ega o‘qituvchilarning faoliyat olib borishi esa qo‘shimcha ta’lim, texnik va badiiy ijod yo‘nalishlarining samarali rivojlanishiga zamin yaratadi. Natijada o‘quvchilarning qobiliyat va iste’dodlari yuzaga chiqadi, ularda mustaqil fikrlash, hayotiy ko‘nikmalar shakllanadi.

Har bir maktabda bolalarning individual qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojlarini inobatga olgan holda faoliyat yurita oladigan pedagoglar bo‘lishi zarur. Bunday o‘qituvchilar o‘quvchilarni ilmiy izlanish va loyiha faoliyatiga jalb etadi, ularning ijodiy va sport musobaqalari, turli tanlov hamda ko‘riklarda faol ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratadi. Shuningdek, o‘quvchilarning bolalar va yoshlar harakatlari, volontyorlik loyihalarida qatnashishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Maktab jamoasi har bir o‘quvchining taqdiri va muvaffaqiyatiga befarq bo‘lmaydi. Shu bois pedagogik jamoa barcha bolalarning bilim olishi, qobiliyatini namoyon etishi va hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun zarur sharoit yaratishga intiladi.

Ta’lim muassasasini malakali kadrlar bilan ta’minlash va samarali pedagogik jamoani shakllantirish bugungi ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. O‘qituvchining kasbiy rivojlanishi hamda ahil maktab jamoasining shakllanishi zamonaviy ta’lim taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Amaliy tavsiya

O‘qituvchining kasbiy rivojlanishi hamda ahil maktab jamoasining shakllanishi zamonaviy ta’lim taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Xalqimizda “Kuch - birlikda” degan hikmat bejiz aytilmagan.

Maktab jamoasining hamjihatligi, o‘zaro hurmat va hamkorlik asosida faoliyat yuritishi ta’lim sifati hamda yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Direktor uchun muhim

Direktor jamoani shakllantirish va rivojlantirishda asosiy mas'uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Har bir pedagog va xodimning kasbiy o‘sishi, jamoaviy ruhni mustahkamlash, ichki nizolarni hal qilish va samarali hamkorlikni ta'minlash direktorning strategik vazifasidir. Jamoada ochiq muloqot, o‘zaro hurmat va ishonch muhitini yaratish rahbarning eng muhim sifatlaridan biridir.

TEZ-TEZ BERILADIGAN SAVOLLAR VA JAVOBLAR!

PEDAGOGLARNING KASBIY MAHORATI TA’LIM NATIJASIGA QANDAY TA’SIR QILADI?

Oliy toifali va tajribali o‘qituvchilar sifatli ta’lim, chuqur fan o‘rgatish va o‘quvchilarni kelajak kasbiga yo‘naltirish imkonini beradi.

DIREKTORNING JAMOANI SHAKLLANTIRISHDAGI VAZIFASI NIMADAN IBORAT?

Jamoani shakllantirish va rivojlantirish — pedagoglarning kasbiy o‘sishini ta’minlash, jamoaviy ruhni mustahkamlash, ichki nizolarni hal qilish va ochiq muloqot, o‘zaro hurmat-ishonch muhitini yaratish.

NEGA JAMOANING HAMJIHATLIGI MUHIM?

Chunki ta’lim sifati va yosh avlodni barkamol tarbiyalash bevosita jamoadagi hamjihatlik, o‘zaro hurmat va hamkorlikka bog‘liq — “Kuch — birlikda” tamoyili shu yerda amal qiladi.

